BADIIY MATNDA REALIYALAR VA ULARNING LINGVOMADANIY TALQINI

Mashxura Xusanova Axmadjonovna
FarDu mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya

Ushbu maqolada XX asr o‘zbek adabiyotining yirik namoyandasi Shukur Xolmirzayev asarlarining lingvokulturologik xususiyatlari va badiiy til mahorati tadqiq etiladi. Tadqiqotda yozuvchi nasridagi milliy mentalitet, xalqona iboralar, frazeologizmlar va realiyalar zamonaviy tilshunoslikning yangi yo‘nalishlari, xususan, lingvokulturologiya hamda lisoniy shaxs nazariyalari prizmasi o‘rganilgan. Shuningdek, adib asarlarining o‘zbek tili va adabiyoti tarixidagi o‘rni hamda undagi lisoniy birliklarning madaniyat va til o‘zaro aloqadorligini ochib berishdagi ahamiyati yoritilgan.

Kalit so‘zlar: *lingvokulturologiya, Shukur Xolmirzayev, til va madaniyat, badiiy matn, lisoniy manzara, milliy mentalitet, realiyalar, stereotip, tilning mukammal tadqiqi.*

KIRISH

Badiiy matn til va madaniyatning uzviy uyg‘unlashgan maydoni bo‘lib, unda xalqning tarixiy xotirasi, turmush tarzi, qadriyatlari va mentaliteti turli til birliklari orqali ifodalanadi. Ana shunday birliklardan biri – realiya bo‘lib, u muayyan xalq hayotiga xos bo‘lgan predmet, hodisa yoki tushunchalarni ifodalovchi lingvistik birlik sifatida namoyon bo‘ladi. Realiyalar badiiy matnda nafaqat nominativ, balki kuchli lingvomadaniy yukni ham o‘zida mujassam etadi.

O‘zbek adabiyotida realiyalarni chuqur va tabiiy ifodalagan ijodkorlardan biri – Shukur Xolmirzayev hisoblanadi. Uning asarlarida milliy turmush manzaralari, qishloq hayoti, insoniy munosabatlar aynan realiyalar orqali jonli va ishonarli tasvirlangan.

ASOSIY QISM

Tilshunoslikda realiya atamasi ko‘pincha muayyan millatga xos bo‘lgan, boshqa madaniyatda to‘liq ekvivalenti mavjud bo‘lmagan predmet yoki tushunchalarni ifodalovchi birlik sifatida talqin etiladi. Lingvomadaniy yondashuvda esa realiya faqat nomlash vositasi emas, balki madaniy kodni tashuvchi birlik sifatida qaraladi. Realiyalar milliy-spetsifiklik (faqat muayyan madaniyatga xosligi), tarixiylik (muayyan davr bilan bog‘liqligi), semantik ko‘pqatlamlilik (nafaqat predmetni, balki uning ortidagi qadriyatni ham ifodalashi), konnotativ boylik (emotsional-ekspressiv rangdorlik) kabi xususiyatlari bilan ajralib turadi. Shu jihatdan realiyalar lingvomadaniy birlik sifatida matnda yashirin ma’no qatlamlarini ochishga xizmat qiladi.

Shukur Xolmirzayev asarlarida realiyalar ko‘pincha qishloq hayoti, urf-odatlar, ijtimoiy munosabatlar va maishiy turmush bilan bog‘liq holda qo‘llanadi. Yozuvchi realiyalarni sun’iy ravishda emas, balki tabiiy nutq jarayonida, obraz xarakterini ochish vositasi sifatida ishlatadi.

1. Maishiy realiyalar.

Yozuvchi asarlarida o‘zbek xalqining kundalik turmushiga oid *supra, tandir, qozon, dasturxon, do‘ppi, chopon, belbog‘* kabi birliklar tez-tez uchraydi. Mazkur realiyalar oddiy predmet nomi bo‘lishdan tashqari, milliy turmush tarzini ifodalaydi. Masalan, tandir – non yopish va taom pishirish uchun mo‘ljallangan an'anaviy o‘choq. O‘zbek madaniyatida tandir nafaqat maishiy buyum, balki oila farovonligi, qut-baraka va rizq ramzi hisoblanadi. Badiiy matnlarda tandir obrazi orqali qishloq hayoti, milliy turmush tarzi va oilaviy qadriyatlar ifodalanadi. Shuning uchun “tandir” leksemasi milliy olam manzarasining muhim elementi sifatida namoyon bo‘ladi.

Belbog‘ – erkaklar kiyimining muhim qismi bo‘lib, belga bog‘lanadigan mato yoki kamar. O‘zbek madaniyatida belbog‘ erkaklik, salobat, oriyat va mehnatsevarlik timsoli sifatida talqin qilinadi. Ayrim marosimlarda belbog‘ bog‘lash hurmat yoki e’tirof belgisi hisoblangan. Shu sababli bu birlik milliy an'ana va ijtimoiy munosabatlarni aks ettiruvchi lingvomadaniy realiya hisoblanadi. Nutqimizda uchraydigan “belida belbog‘i bor” iborasi ana shunday lingvomadaniy ma’no tashiydi.

Supra – xamir yoyish, non tayyorlash uchun ishlatiladigan mato yoki dasturxon. O‘zbek xalqining kundalik turmushida supra non va rizq bilan bog‘liq tushunchalarni ifodalaydi. Lingvomadaniy jihatdan supra oilaviy birlik, qut-baraka va mehmondo‘stlik konseptlari bilan bog‘langan. “Supraqoqdi” iborasi esa kenja farzand ramzi sifatida qo‘llanadi.

Do‘ppi – o‘zbek milliy bosh kiyimi. U nafaqat kiyim elementi, balki milliy o‘zlik, etnik mansublik va madaniy identifikatsiyaning ramzidir. Hududlarga qarab do‘ppilarning shakli va naqshlari farqlanadi. Badiiy matnda do‘ppi obrazi qahramonning milliy qiyofasini yaratish, uning qaysi madaniy muhit vakili ekanligini ko‘rsatish vazifasini bajaradi. “Do‘ppi tor kelmoq” iborasi biror vaziyat va joy, imkoniyat va sharoit kishiga yetarli bo‘lmay qolishi, mavjud holatdan qoniqmaslik ma’nolarini anglatadi

Chopon – keng bichimli milliy ustki kiyim. O‘zbek xalqining tarixiy turmush tarzida chopon kundalik hayot va marosimlarda keng qo‘llangan. Chopon hurmat va e’tibor belgisi sifatida ham qadrlangan. Masalan, “chopon kiydirish” odati xizmat yoki yutuq uchun minnatdorlik ifodasi hisoblangan. Lingvomadaniy nuqtayi nazardan chopon milliy kiyinish madaniyati, ijtimoiy munosabatlar va xalq an'analarini aks ettiruvchi realiyadir.

Tandir, belbog‘, supra, do‘ppi va chopon leksemalari o‘zbek xalqining moddiy madaniyati bilan bog‘liq lingvomadaniy realiyalar bo‘lib, ular milliy olam manzarasining muhim tarkibiy qismlarini tashkil etadi. Masalan, – *Rost. Tabiat dono, dono... – Keyin kulimsiradi Mansur. – Muovinning xotini juda uyatchan ekan, kampir. Huv, patir yopib bergan eding-ku?.. Shunday-shunday, opangiz yo‘qladilar. Tomoqlaridan o‘tmay shuni yubordilar, desam, turgan yerida aylanib qoldi. – U xaxolab kuldi. – Keyin bechora yig‘lagudek bo‘lib oldi: «Biz bo‘lkaga o‘rganib qolganmiz, aka», dedi... E, qoyil emasman shu yigitga. O‘zi zamdirektor. Kulturni kishi. O‘zbek. Tandiri yo‘q ekan-a! Shuyam oila bo‘ldi-yu*!

O‘zbek xonadonida tandir shunchaki non yopiladigan joy emas, balki **oila farovonligi, to‘kisligi va qut-barakasi ramzi**dir. Mansurning *“Tandiri yo‘q ekan-a!*

Shuyam oila bo‘ldi-yu!” degan hayrati va ta’biri o‘zbek mentalitetidagi muhim qarashni ochib beradi. Ya’ni, o‘zbek kishisining tasavvurida tandirsiz uyni to‘laqonli, qut-barakali “oila” deb hisoblash qiyin. Tandirning mavjudligi oilaning mustahkamligi va milliy ildizlarga sodiqligini ko‘rsatadi. Matnda zamonaviylik (shaharlashish) va milliylik o‘rtasidagi kognitiv to‘qnashuv tandir va non turlari orqali berilgan. Mansurning ongida bu tushunchalar yonma-yon kelganda, o‘sha insonning uyida albatta tandir bo‘lishi kerak. Mansur uchun o‘zbek kishisining yuqori lavozimda ishlashi yoki madaniyatli bo‘lishi uni milliy qadriyatdan (tandirdan) uzoqlashtirmasligi lozim. *“Biz bo‘lkaga o‘rganib qolganmiz”* degan jumla oilaning o‘z milliy an’analaridan uzoqlashgani, shahar hayot tarzi (tayyor do‘kon noni)ga moslashganini ko‘rsatadi. “Bo‘lka non” bu yerda begonalashish va milliylikdan chekinish ramzi o‘rnida kelmoqda.

Matndagi *“Opangiz yo‘qladilar. Tomoqlaridan o‘tmay shuni yubordilar”* jumlasi o‘zbek xalqiga xos bo‘lgan shirin taomni qo‘shni yoki yaqinlar bilan baham ko‘rish qadriyatini ifodalaydi. Tandirdan yangi uzilgan issiq patir shunchaki yegulik emas, balki yaqinlik, hurmat va mehr-oqibatni yetkazuvchi moddiy vositadir. Muovinning xotini bu mehmondo‘stlik va yuksak ehtirom qarshisida (o‘zlarida bunday imkoniyat yo‘qligi yoki tayyor non yeyishga odatlanishgani sababli xijolatdan) “turgan yerida aylanib qoladi” va “yig‘lagudek” bo‘ladi.

Ushbu birliklar badiiy matnda nafaqat predmet nomi sifatida, balki xalqning tarixiy xotirasi, urf-odatlari, qadriyatlari va milliy mentalitetini ifodalovchi madaniy kodlar sifatida ham faol qo‘llanadi. Shuning uchun ular Shukur Xolmirzayev asarlarining lingvomadaniy tahlilida muhim tadqiqot obyekti hisoblanadi.

2. Ijtimoiy-madaniy realiyalar.

Yozuvchi qahramonlari nutqida quyidagi ijtimoiy realiyalar ham muhim o‘rin egallaydi: *oqsoqol, mahalla, to‘y, hashar.*

Masalan, *mahalla* realiyasi o‘zbek ijtimoiy hayotining o‘zagidir. G‘arb madaniyatidagi “neighborhood” (qo‘shnichilik hududi) tushunchasidan farqli o‘laroq, o‘zbek tilida mahalla – ma’muriy, tarbiyaviy, ma’naviy va huquqiy funksiyalarni o‘zida jamlagan muqaddas makondir. Xalq orasida “Mahalla – ham ota, ham ona”, “Bir bolaga yetti mahalla ota-ona” kabi maqollar bor. Bu frazeologizmlar mahallaning shaxs tarbiyasidagi sotsializatsiya rolini ko‘rsatadi. Ushbu so‘z zamirida ahillik, xavfsizlik, jamoat nazorati va mehr-oqibat tushunchalari yotadi. O‘zbek kishisi uchun mahallaning fikri (el-yurtning ta’na yoki maqtovi) nihoyatda muhim.

Oqsoqol – donishmandlik va doshqaruv timsoli. Etimologik jihatdan “soqoli oqargan, yoshi ulug‘ inson” ma’nosini anglatuvchi bu so‘z, lingvomadaniy jihatdan shunchaki biologik yoshni emas, balki ijtimoiy maqom va statusni bildiradi. Lingvomadaniy jihatdan oqsoqol – mahallaning norasmiy (ba’zan rasmiy) rahbari, hakam, mediator (yarashtiruvchi) va maslahatgo‘yidir. Uning so‘zi qonun darajasida hurmat qilinadi. Bugungi kunda bu realiya faqat yoshga nisbatan emas, balki biror sohaning eng tajribali, hurmatli vakillariga nisbatan ham qo‘llaniladi (masalan, “ilm-fan oqsoqollari”). U o‘zbek madaniyatidagi gerontokratiya (kattalarga hurmat) tamoyilini lisoniy aks ettiradi.

To‘y – hayotiy sikl va hamjihatlik cho‘qqisi. O‘zbek madaniyatida “to‘y” tushunchasi o‘ta keng semantik maydonni qamrab oladi. G‘arbda “wedding” yoki

“party” individual quvonchni anglatsa, o‘zbek realiyasida to‘y – butun jamoaning imtihoni va hisobotidir. Lingvomadaniy xususiyati esa quyidagicha: to‘y turlari o‘zbek tilining leksik qatlamida juda boy: beshik to‘yi, xatna to‘yi, nikoh to‘yi, yubiley to‘yi. *“To‘y to‘ydek bo‘lsin”, “Ko‘pga kelga to‘y”, “To‘yga borsang, to‘yib bor”* kabi iboralar to‘yning o‘ziga xos tartib-qoidalari, xarajatlari va ijtimoiy majburiyatlarini ko‘rsatadi. To‘y – o‘zbeklar uchun hayotning mazmuni va to‘plagan obro‘-e’tiborini ko‘rsatish minbaridir. Masalan, – *Shukur, ayting, aytib bering. Men bir aylanib kelay. Matlabning to‘yi... – deb Ismat ham qo‘zg‘aldi va ro‘paramizga kelib, joy olayotgan Xayrullaga tayinladi:*

– Sen qarash... Xizmatda bo‘l! Matlab – sengayam tog‘a! Moshinasini haydaysan... – Tog‘am bo‘lgani uchun ham moshinasini tashladim, – dedi Xayrulla g‘ijinib.

– Asalchilik qilaman. Kunim o‘tadi... Boring, xizmat qiling. Men qilib qo‘yganman... Odil aka, qalay bo‘lyapti dam olish? Qishloqning to‘yi-da... (Saylanma. I jild, 195-b).

Hashar – kollektivizm va birdamlik fenomeni. Hashar – o‘zaro yordam, begaraz ko‘mak va ijtimoiy birdamlikni ifodalovchi eng qadriyatli realiyalardan biridir. Lingvomadaniy semantikasiga e’tibor qaratamiz. “Hashar – elga yarashar” maqoli ushbu tushunchaning tub mohiyatini ochib beradi. Hashar orqali og‘ir mehnat (uy qurish, ariq tozalash, hosil yig‘ish) yengillashadi va u quvnoq, ijtimoiy tadbirga aylanadi. Bu realiya o‘zbek xalqining individualizmdan yiroq ekanligini, “Yolg‘iz otning changi chiqmas” degan falsafa bilan yashashini ko‘rsatadi. Hasharda hech kim moddiy manfaat kutmaydi, mehnat evaziga faqat ma’naviy qoniqish va duo olinadi. Masalan, *Shundan keyin ular bugungi hashar haqida, rayon prokurorining nemischa mebel kerak, deb iltimos qilgani, unday mebeldan bir emas, bir nechtasi do‘kon ortidagi omborda turgani holda, unga “yo‘q” deganlari va unday mebel kelishi hamon u kishining uyiga telefon qilishlarini aytganlarini. Eslashib kulib o‘tirishdi.* (Saylanma. I jild, 218-b)

3. Etik va mental realiyalar

Shukur Xolmirzayev asarlarida insoniy munosabatlarni, o‘zbek xalqining ma’naviy-axloqiy dunyosini ifodalovchi etik va mental realiyalar alohida o‘rin tutadi. Yozuvchi ijodida *uyat, or-nomus, andisha, kattaga hurmat, kichikka izzat, mehmondo‘stlik* kabi tushunchalar shunchaki quruq axloqiy qoidalar emas, balki qahramonlar xarakterini va syujet chizig‘ini harakatlantiruvchi ichki ruhiy kuch sifatida namoyon bo‘ladi. Masalan, *Ertasi kuni kechki payt Sheraliboy qizi bilan o‘tovda betma-bet o‘tirar, Bodomgul Mayram opaning bugun kelib ketganini bilar, shuning uchun diqqat, lekin o‘zidan ko‘ngli to‘q edi. Sheraliboy “yangilik”ni qiziga aytolmay, ko‘p andisha qildi, hamsoya kampirni chaqirib, ayttirishni ham o‘yladi.* (Saylanma. I jild, 126-b)

Keltirilgan parchada o‘zbek mentalitetiga xos bo‘lgan eng fundamental etik realiyalardan biri – ***andisha*** tushunchasi va uning kontekstual tabiati yorqin namoyon bo‘lgan. Shukur Xolmirzayev ushbu etik realiyani matnga shunchaki so‘z sifatida olib kirmagan, balki uni o‘zbekona oilaviy munosabatlarning murakkab psixologik ko‘zgusi sifatida tahlil qilgan.

Lug‘aviy ma’noda andisha – biron-bir ish yoki gapning oqibatini o‘ylab ish tutish, hayo, istihola va andishalilik holatini bildiradi. Ushbu matnda u Sheraliboyning ota sifatida qiziga uning taqdiri (sovchilik yoki shaxsiy hayoti) bilan bog‘liq nozik bir “yangilik”ni to‘g‘ridan-to‘g‘ri ayta olmaslik, tilining bormaslik holatini ifodalab kelmoqda.

Lingvomadaniy jihatdan bu o‘rinda andisha o‘zbek xalqiga xos bo‘lgan ota va qiz o‘rtasidagi masofa (subordinatsiya) hamda andisha etiketini ochib beradi:

Nutqiy taqiq (tabu): Sharqona mentalitetda ota qizi bilan uning turmush qurishi yoki shaxsiy masalalarida ochiqcha, yuzma-yuz gaplashishni o‘ziga ep ko‘rmaydi. Bu yerda andisha – yuzsizlik qilmaslik, hayo chegarasini buzmaslik ramzi.

Vositachilik madaniyati: Sheraliboyning gapni o‘zi aytolmay, *“hamsoya kampirni chaqirib, ayttirishni ham o‘yladi”* degan fikri o‘zbekona andisha institutining amaliy ko‘rinishidir. Ya’ni, nozik oilaviy masalalar uchinchi shaxs (vositachi) orqali hal qilinishi andishaning bevosita madaniy modelidir.

Yozuvchi “andisha qildi” birikmasi orqali Sheraliboyning ichki ruhiy kechinmalarini, uning ota sifatidagi andishasini, ayni paytda Bodomgulning *“o‘zidan ko‘ngli to‘q”* holati bilan kontrast (ziddiyat) hosil qilib, o‘tov ichidagi psixologik taranglikni va milliy koloritni juda tabiiy tasvirlagan.

Matndagi andisha realiyasi o‘zbek xonadonidagi ota-bola munosabatlarini, oilaviy iyerarxiya va sharqona iffat qoidalarini so‘zsiz harakatlantiruvchi chuqur mental-etnik kod bo‘lib xizmat qilgan.

XULOSA

Shukur Xolmirzayev badiiy tilida realiyalar ikki qatlamli ma’no strukturasini hosil qiladi: Yuzaki (denotativ) qatlam matnning tashqi manzarasi va maishiy muhitini ta'minlaydi. Chuqur (konnotativ-madaniy) qatlam millatning dunyoqarashi, mifologik va falsafiy ildizlarini ochib beradi.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, Shukur Xolmirzayev asarlarida realiyalar shunchaki etnografik elementlar emas, balki ulkan funktsional-stilistik yukni tashuvchi lingvomadaniy birliklardir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Ashurova D.U., Galieva M.R. Lingvokulturologiya. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2016. – 212 b.
2. Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston milliy kutubxonasi elektron katalogi // www.natlib.uz.
3. Bozorov O. O‘zbek tilida milliy-madaniy voqelik shakllarining lisoniy in’ikosi: Filol. fan dokt. ... diss. – Toshkent, 2018. – 240 b.
4. Каримов Н. ва бошқ. XX аср ўзбек адабиёти тарихи. – Тошкент: Ўқитувчи, 1999.
5. Маҳмудов Н. Тилнинг мукаммал тадқиқи йўлларини излаб... // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2012. – № 5. – Б. 3–16.
6. Маслова В. А. Лингвокультурология: Учебное пособие. – Москва: Академия, 2001. – 208 с.
7. Ўзбекистон Миллий энциклопедияси. Электрон версияси // www.ziyouz.com.
8. Қўшжонов М. Шукур Холмирзаев // Ўзбек адабиёти бўйича тадқиқотлар. – Тошкент: Фан, 1985.

9. Sayfullayeva R. va boshq. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent: Innovatsiya-Ziyo, 2020. – 416 b.
10. To‘rayeva G. Badiiy matnda realiyalarning lingvokulturologik va pragmatik xususiyatlari: Filol. fan. nomz. ... diss. avtoref. – Samarqand, 2011. – 24 b.
11. Влахов С., Флорин С. Непереводимое в переводе. – Москва: Международные отношения, 1980. – 343 с.
12. Xolmirzayev Sh. O‘n sakkizga kirmagan kim bor: Roman va hikoyalar. – Toshkent: Sharq, 2002. – 416 b.
13. Xolmirzayev Sh. Tanlangan asarlar. 3 jildlik. – Toshkent: Sharq, 2003–2006.
14. Yo‘ldoshev M. Badiiy matn lingvopoetikasi. – Toshkent: Fan, 2008. – 160 b.